

**O‘qishni ko‘chirish tartibi bo‘yicha kengroq tushuntirish
Quyidagi tushuntirishlarning asosi: 2022-yil 15-iyunda imzolangan PQ-279-sod
Prezident qarori.**

Bir davlat OTMdan boshqa davlat OTMga o‘qishni ko‘chirish.
Bunday holda faqat 2 ta vaziyatda ruxsat beriladi:

1) talaba oila qursa va turmush o‘rtog‘i doimiy yashaydigan hududdagi OTMga ko‘chmoqchi bo‘lsa;

2) davlat xizmatchisi ish yuzasidan boshqa hududga ko‘chsa va turmush o‘rtog‘i yoki voyaga yetmagan farzandining o‘qishini o‘sha hududga ko‘chirmoqchi bo‘lsa (ishga kirgan vazirlilik xati asosida).

✗ Boshqa holda “ichki perevod”ga ruxsat yo‘q. Boshqa hududga ham, o‘z hududidagi boshqa OTMga ham.

2) Xorijdan o‘qishni ko‘chirish

Bunda o‘tgan yilgi tartib saqlanib qolgan:

1) mos va turdosh yo‘nalishga test yoki ijodiy imtihon topshiradi hamda o‘tish balini to‘plash talab etiladi. 2023-yilgi o‘tish ballari bu yerda:

2) o‘tish balini to‘play olmasa, super-kontrakt shartlari asosida o‘qishini ko‘chirishga ruxsat beriladi;

3) xorijdan mos va turdosh bo‘lmagan yo‘nalishga o‘qishni ko‘chirishga ruxsat berilmaydi. 2023-yilgi turdosh yo‘nalishlar ro‘yxati bu yerda:

!! Test o‘tgach, har bir talabaning hujjati qayta tekshiriladi. Kimdir “xorijda o‘qiyapti” degan soxta hujjat tayyorlagan bo‘lsa, natijalar bekor qilinadi va prokuraturaga soxta hujjat tayyorlash fakti yuzasidan murojaat etiladi.

3) O‘zbekistondagi xorijiy va nodavlat OTMlardan o‘qishni ko‘chirish

Bunda ham o‘tgan yilgi tartib saqlanib qolgan:

1) mos va turdosh yo‘nalishga test yoki ijodiy imtihon topshiradi hamda o‘tish balini to‘plash talab etiladi. 2023-yilgi o‘tish ballari bu yerda:

2) o‘tish balini to‘play olmasa, super-kontrakt shartlari asosida o‘qishini ko‘chirishga ruxsat beriladi;

3) mos va turdosh bo‘lmagan yo‘nalish uchun esa bir martalik “super-kontrakt” to‘lab ko‘chirishi mumkin. 2023-yilgi turdosh yo‘nalishlar ro‘yxati bu yerda:

4) Davlat OTMdan nodavlat OTMga o‘qishni ko‘chirish

Buni davlat nazorat qilmaydi, buning tartibini nodavlat OTMlarning o‘zi mustaqil belgilaydi. Nodavlat OTMga o‘qishni ko‘chirish mumkin yoki mumkin emasligini o‘sha OTMning o‘zidan aniqlashtiring.

5 Nodavlat OTMdan nodavlat OTMga o‘qishni ko‘chirish

Buni ham davlat nazorat qilmaydi, tartibini ko‘chirmoqchi bo‘linayotgan nodavlat OTMdan aniqlashtirish kerak.

6 Xorijdan nodavlat OTMga o‘qishni ko‘chirish

Buni ham davlat nazorat qilmaydi, tartibini ko‘chirmoqchi bo‘linayotgan nodavlat OTMdan aniqlashtirish kerak.

7 Bir davlat OTM ichida bir yo’nalish yoki fakultetdan boshqa yo’nalish yoki fakultetga o‘qishni ko‘chirish

Ushbu masala OTM rektori tomonidan hal qilinadi, ariza ham rektor nomiga yoziladi (transfer.edu.uz yoki my.uzbmb.uz sayti orqali emas). Bunda ko‘chirilayotgan yo’nalishning mos va turdoshligi, ko‘chirilish sababi, OTM imkoniyatlari va boshqa faktorlar inobatga olinishi mumkin.

8 Bir OTM va hatto bir yo’nalish doirasida ta’lim shaklini yoki tilni o’zgartirish

Ushbu masala ham OTM ma’muriyati tomonidan hal qilinadi. Bunda ham ko‘chirish maqsadi, OTMning imkoniyati (masalan, auditoriya sig’imi, professor-o‘qituvchilar soni va hk) va boshqa faktorlarga qaralishi mumkin. Masalan, sirtqidan kunduzgiga o’tkazish deyarli imkonsiz, bu haqda o’ylamasa ham bo’ladi. Lekin kunduzgidan sirtqiga ko‘chirish muammosiz hal bo’ladigan masala.

Arizalar quyidagicha qabul qilinadi:

→ **transfer.edu.uz** — respublikaning bir OTMdan boshqa OTMga yoki bir OTM doirasida;

→ **my.uzbmb.uz** — xorijiy va nodavlat oliy ta’lim muassasalaridan davlat OTMlariga;

→ **rektor nomiga yozma yoki OTMdha mavjud elektron tizim orqali** — bir davlat OTM ichida yo’nalish, fakultet, ta’lim shakli yoki tilini ko‘chirish.

 **Arizalar 15-iyuldan 5-avgustgacha (shu kuni ham) qabul qilinadi.**

Kerakli hujjatlar:

- **ariza (onlayn tarzda);**
- **transkript yoki reyting daftarchasi (JPEG yoki Pdf shakli);**
- **akademik ma’lumotnoma (o‘qishni tiklovchilar uchun).**